

ILMNING ZIYODA BO'LISHI KITOB BILAN

Gizatulina Salima Nailevna*Ichki ishlar Vazirligi Buxoro akademik litseyi o'quvchisi*

"Yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim".

Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitob mutolaasi shaxsn ni tarbiyalashda muhim rol o'ynashi, insonning ma'naviyatini yuksaltiruvchi bir vosita sifatida namoyon bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, ma'naviyat, tarbiya, omil, ibrat.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar orasida buni targ'ib qilish lozimligi haqida ko'p bora aytildi va aytilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning bittasi aynan kitobxonlikka qaratilgan bo'lib, u yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Qadimdan kitob mutolaasi shaxsn ni tarbiyalashda uning individual xususiyatlarini ochib berishda muhim va ajralmas rol o'ynagan, shuningdek, uning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy dunyoda kitob mutolaasi birinchi navbatda uzlusiz ta'lim tizimida, shu jumladan, har bir yoshning kundalik faoliyatida alohida o'rin tutishi lozim deb o'ylayman.

Buyuk allomalarimiz, atoqli yozuvchilarimiz ham kitob orqali buyuk kishilar bo'lib yetishganlar va xuddi shu kitob orqali bu allomalarimiz buyuk ishlari va yozuvchilarimizning asarlarini o'rghanmoqdamiz. «Kitob ko'rmagan odam nodondir, kitob kirmagan uy qorong'u zimistondir», -deydi donishmandlar. Poklanish, iymon butunligi, ruhiy boylik ham kitobdandir. Kitob insonning maslahatgo'yi, doimiy xamrohidir.

Shu o'rinda, fikrimni zaminimiz tarixi bilan bog'liq bir rivoyat bilan asoslamoqchiman. 10-asrning oxirida Buxoroda hukmdorlik qilgan Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur qattiq dardga chalinib qoladilar. Saroy tabiblari qo'llaridan kelgan barcha davo usullarini qo'llaydi. Ammo amir shifo topmaydi. Shunda endigina 16 yoshga to'lgan Ibn Sino, ha, bu siz bilgan, G'arb Avitsenna deb ataydigan, Buxoro farzandi – Ibn Sino hukmdorning bedavo kasalini tuzata oladi. Darddan forig' bo'lgan Nuh ibn Mansur Ibn Sinodan istagan tilagini bajo keltirishni so'raydi. Shunda Ibn Sino

nima so‘ragan, deb o‘ylaysiz: Boylikmi, uy-joymi yo Buxoroning biror hududinimi? Yo‘q, aslo yo‘q. Uning tilagi juda oddiy bo‘lgan. Ibn Sino bobomiz o‘shanda Buxoro amirligi kutubxonasi dagi barcha kitoblarni o‘qib chiqishga ruxsat so‘ragan. Keyinchalik yosh tabibning Shayx ur Rais darajasiga ko‘tarilishi va qomusiy ilmlar sohibi bo‘lishiga ham ana shu noyob kutubxonada o‘qigan kitoblari muhim rol o‘ynagan.

Yana bir buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniyning butun umri, ijodiy izlanishlari kitob mutolaasining betakror va ibratli namunasidir. U kishi boshqa joyga ko‘chsa, avvalo yiqqan kitoblarini o‘zi bilan olib ketgan. Alloma o‘zidan kitoblar qolishini, har bir asari bilimning asali bo‘lishini bilgan va o‘z ilmidan faxrlangan.

Axmad Yugnakiy o‘lkamizda yashagan va ijod qilgan yirik donishmanddir. U kelgusi avlodlarga qoldiriladigan meros, boylik, kitob deb biladi. Kitob inson nomini mangu esdalik qiladi, uni avlodlar o‘qib, “xaqqiga duo qiladi”, unda “ajoyib tansiq so‘zlar” bo‘ladi. Kitob o‘qiydigan, ilmli kishini o‘ziga yaqin tutishiga undaydi. “Bilimli kishining o‘zi o‘lsa ham nomi o‘lmaydi”, - deydi donishmand bobomiz.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, buyuk bobokalonlarimizning kitobga, ilmga bo‘lgan cheksiz mehri biz yoshlarga katta ibrat maktabi bo‘lmog‘i kerak. Oilada ham ota-onalar, kattalar o‘zi o‘qigan kitob haqida yosh avlodga gapirib berishni odat qilishi, farzandlarining nima o‘qiyotgani, kimning qanday asarini mutolaa qilayotgani bilan qiziqishi, vaqt kelganda shu asar bo‘yicha bahs-munozara qilishi kerak deb o‘layman. Ya’ni, faqat imtihonlar va tanlovlardan uchungina o‘qish kerak emas kitobni! Yodlash yoki xo‘jako‘rsinga o‘qilmaydi kitob! Chunki, inson ma’naviyatini, vatanparvarlik, yurtparvarlik xislatlarini, dunyoqarashini yuksaltiruvchi murabbiydir kitob!

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kitobning inson hayotida ahamiyati katta. Bu bizga dunyoni o‘rganishga, ilhomlanishimizga va rivojlanishimizga yordam beradi. Kitoblar madaniyatimiz va merosimizning ajralmas qismidir. Ular bizni yaxshiroq bo‘lishga o‘rgatadi va yaxshi inson bo‘lishimizga imkon beradi. Shuning uchun kitoblarni, ularning mualliflarini va ular biz uchun ifodalangan barcha narsalarni qadrlash va hurmat qilish kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risidagi» PF-4947- son Farmoni.

2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.

3.Ylo‘doshev E. Yoshlarda sog‘lom dunyoqarash va kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish. //Xalq ta’limi, 1999.